

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

ASQAROVA DILAFRUZ IBROXIMOVNA

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 - Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим
наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Asqarova Dilafruz Ibroximovna

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Аскарова Дилафруз Иброхимовна

Совершенствование методики развития креативной компетентности воспитателей на основе инновационного подхода.....21

Askarova Dilafruz Ibrohimovna

improving the methodology for developing the creative competence of future educators based on an innovative approach.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

ASQAROVA DILAFRUZ IBROXIMOVNA

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 - Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD\ Ped602 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomli O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shirbacheva Gulchehra Shakirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), v.b.professor

Rasmiy opponenlar:

Abduraximova Dilfuza Aliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,

Azimova Musharraf Utkirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

Kirish (falsafa doktorlik (PhD) dissertasiya annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion kreativlik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarning kelajakdagi kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlanish uchun ijtimoiy va amaliy faoliyatlarida kreativliklarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari ichida hayot davomida ta'lim olish tamoyillariga moslashtirish - barcha insonlar uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash va umrbod o'rganish jarayonini rag'batlantirish ta'lim tizimining uzluksizligini, inson hayoti davomida bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion yondashuv asosida kreativliklarini rivojlantirish, bo'lajak pedagoglarga kreativlik sifatlari, ijobiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida kreativ tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash yangi pedagogik vositalarini ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kreativ faoliyatni samarali tashkil etishni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Onlayn ta'lim platformalari, masofaviy kurslar va kasbiy rivojlanish dasturlarini va o'qish tamoyillarini qo'llab-quvvatlash va uni ommalashtirish bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishning asosiy kreativ sifatlarni shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida faoliyat olib borish noodatiy fikrlash va innovatsion yondashuvni qaror toptirish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiya qilish va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining metodologik bazasi takomillashtirilib, ta'lim resurslari yaratishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion vositalardan foydalanish", "pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish"¹ ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirish orqali soha mytaxassislarining pedagogik imkoniyati oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadvirlar to'g'risida" qarorlari hamda mazkur

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir." «Tasvir» - 2021

sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalari rivojlantirishning 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish N.Kadirova, D.Qo'chqorov, N.Ibragimova, I.Soliyev, M.A.Jumayeva, D.Djurayeva; bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish Sh.Xayitova, G.Djuraeva, L.N.Maxmutov, Z.Paziljonova, N.Fayzullaeva, N.Botirova, A.Aripdjanova, G.Yusupova, K.Yusupova, Sh.Pozilovalar tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida pedagogning kreativ faoliyati tushunchasi hamda uni rivojlantirish yo'llari A.Zubkova, D.Bogoyavlenskaya, T.Kovalchuk, L.Stefanova, A.Jigalov, A.Romishevskiy, A.Barishevalar, I.Ilina, Y.K.Babanskiy, V.Guzeyev, G.Smolyaninova; bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish I.P.Ivanov, N.Y.Shurkova, V.Y.Pityukov, A.P.Savchenko tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijda N.Marsh, F.Vernoy, R.Oech, Ye.P.Torrens, R.Epshteyn, S.Bert, D.Gilford, P.Torrens, A.Maslou, B.Goldsmis, R.Bridgstock, L.Terstoun, F.Heddon, G.Altshuller, N.Drujinin, Beghetto, G.Littonlar ilmiy izlanishlarida kreativ tafakkur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy-texnologik jihatlari aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tizimining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlari rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" mavzusida rejaga muvofiq bajarilgan (2022-2024 yy.)

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

innovation yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

innovation yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

innovation yondashuv asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi takomillashtirish;

innovation yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlanganlik samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga Guliston davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti Farg'ona davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari 304 nafari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, zamonaviy, pedagogik adabiyotlarni tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim tizimidagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan tafakkur tezkorligi, noaniqlikka toqat qilish, moslashuvchanlik, yangi g'oyalarni yaratish, tashabbuskorlik, zakovatli bo'lish sifatleri umumiy elementlarini yaxshilash hamda kreativ loyihalarni tayyorlash va noodatiy tarzda bayon etish asosida aniqlashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli o'zini anglashda umuminsoniy, madaniy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, tafakkur va tasavvur olamining kengligini his eta olish faolligi hamda g'oyalar barqarorligini ta'limiy maqsadlarga bosqichma-bosqich moslashtirish, tizimli muammoli, kompetensiyaviy yondashuvlarni didaktik tamoyillarga kolobrativligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi intellektual faoliyatga qiziqishni oshirish, o'z-o'zini faollashtirishga mos pedagogik muhitning ta'sirchanligini oshirish hamda kasbiy ijodkorlikni bosqichma-bosqich amalga oshirishning skarebey, virtual haqiqat, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni ratsional qo'llash asosida takomillashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligi Gilford taksonomiyasiga asoslangan loyihaviy, muammoli va innovatsion faollikni ta'minlash, muammoli vazifalar yechimini nostandart aniqlash va yangi g'oyalarni milliy qadriyatlarga izchil moslashtirish hamda baholash mezonlariga ko'ra bilimlarini o'zlashtirishning darajalariga mos vektorli o'sishini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning modeli rivojlantirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik omillari

aniqlashtirilgan hamda pedagogik faoliyatni tashkil qilish samaradorligini baholash rivojlantirilgan mezonlari takomillashtirilgan;

“Metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232- buyrug‘i, 232-24-raqamli nashr ruxsatnomasi);

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning o‘quv-metodik ta’minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga metodologik, metodik, falsafiy, pedagogik va innovatsion yondashuvlar hamda kreativlikni rivojlantirish, respublika va xorij olimlari tajribalariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining maqbulligi hamda olingan natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, yetakchilik fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan muayyan pedagogik tizim va nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; kreativlik darajasini belgilovchi mezonlar hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta’minlovchi ilmiy-metodik takliflardan foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi va ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy fanlari bo‘yicha takomillashtirilgan malaka talablari, fan dasturlarini ishlab chiqishda amaliy faoliyatga tayyorlashga doir kreativlikni aniqlanganligi; ta’limiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda fanlararo innovatsion ta’lim metodlarining samarali mexanizmlari takomillashtirilganligi, uning pedagogik asoslari va amaliyotda qo‘llashning qulay shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan tafakkur tezkorligi, noaniqlikka toqat qilish, moslashuvchanlik, yangi g‘oyalarni yaratish, tashabbuskorlik, zakovatli bo‘lish sifatleri umumiy elementlarini yaxshilash hamda kreativ loyihalarni tayyorlash va noodatiy tarzda bayon etish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetning 2025-yil 24-martdagi 11-05-1786/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish va umumlashtirish asosida bo‘lajak tarbiyachilarda innovatsion kreativlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish imkoni oshirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli o‘zini anglashda umuminsoniy, madaniy-ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, tafakkur va tasavvur olamining kengligini his eta olish faolligi

hamda g'oyalari barqarorligini ta'limiy maqsadlarga bosqichma-bosqich moslashtirish, tizimli muammoli, kompetensiyaviy yondashuvlarni didaktik tamoyillarga kolobrativligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarbiyachilar uchun multimediali dars ishlanmalar majmuasi yaratish" nomli amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025 yil 24 martda 11-05-1786\04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarda kreativlik qobiliyatini rivojlanganlik darajasini tashxis etish imkoniyatlarini aniqlashtirishga sharoit yaratilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi intellektual faoliyatga qiziqishni oshirish, o'z-o'zini faollashtirishga mos pedagogik muhitning ta'sirchanligini oshirish hamda kasbiy ijodkorlikni bosqichma-bosqich amalga oshirishning skarebey, virtual haqiqat, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni ratsional qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetning 2025-yil 24-martdagi 11-05-1786/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlantirishga erishilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligi Gilford taksonomiyasiga asoslangan loyihaviy, muammoli va innovatsion faollikni ta'minlash, muammoli vazifalar echimini nostandart aniqlash va yangi g'oyalarni milliy qadriyatlarga izchil moslashtirish hamda baholash mezonlariga ko'ra bilimlarini o'zlashtirishning darajalariga mos vektorli o'sishini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan Toshkent davlat pedagogika universitetning 2025-yil 24-martdagi 11-05-1786/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning kreativ rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta 3 tasi respublikamiz va 1 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda innovatsion yondashuv va kreativlik borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olmlar fikrlari tahlil qilingan.

Hamda tahlil natijasida “innovatsiya”, “innovatsion yondashuv”, «kreativlik», «kreativ» kabi atamalariga mualliflik ta’rifi keltirilgan: Innovatsion yondashuv – bu mavjud tizim va jarayonlarni ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy ilmiy yutuqlar va kreativ fikrlash asosida yaxshilashga qaratilgan uslubiy yondashuvdir.

Kreativlik bu- ijodkorlikning rivojlangan ko‘rinishi bo‘lib, ichki hissiyotlarning junbushga kelishi va sezgi jarayonining rivojlanganligi, intellektning moslashuvchanligi, zamonaviy echimga ega bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish faoliyati, o‘zini-o‘zi anglashning shaxsiy ehtiyoji, yangilik yaratishga bo‘lgan motivatsiyaning akme darajasidir. Oliy ta’limda kreativlikni rivojlantirish bo‘lajak tarbiyachilar va ularning shaxsiy yutuqlari hamda jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Chunki, bo‘lajak tarbiyachilarning kelajakdagi amaliy faoliyati jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga, yangiliklar yaratishga va oldindan aytib bo‘lmaydigan muammolarni hal qilishi uchun samarali strategiyalarni o‘zlashtirgan, muammolarni hal qilish, tanqidiy va mustaqil fikrlashga ega bo‘lgan bo‘lishlari zarur. Bo‘lajak tarbiyachilar kreativligining rivojlanishi pedagoglarning kreativ sifatlari qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Pedagoglarning kreativlik darajalari esa bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarini qanday baholashlari bilan bog‘liq, ya’ni pedagog qay darajada kreativ bo‘lsa, u bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik bilan bog‘liq xususiyatlarini shunchalik rivojlantira oladi.

Mazkur bobda innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy zarurat sifatida o‘rganilib, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kreativliklarini rivojlantirishning imkoniyatlari aniqlandi, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish aspektlari ilmiy jihatidan tahlil qilindi.

Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ijtimoiy faollikning tarkibiy asoslarini (tafakkurning tezkorligi, bir qolipda fikrlamaslik, noaniqlikka toqat qilish, moslashuvchanligi, originalligi, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, tashabbuskorlik, zakovatli bo‘lish) loyihalar tayyorlash va amaliyotga joriy eta olish, o‘z kreativliklarini namoyish eta olish va olgan ta’limiy ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida tarkib toptirish masalalari mazkur bobda o‘rganilgan.

Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash hamda o‘zaro ta’sir sub’ektlari munosabatlarning konseptual jihatlariga ustuvorlik berish asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish; intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, psixomotorik harakatlar oddiy, o‘rta va kompleks harakatlar va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Adabiyotlar taxliliga ko‘ra, kreativ fikrlashni ijtimoiy zarurat sifatida

rivojlantirish va yangi g'oyalarni yarata olish quyidagi jarayonlarni shakllantirish va takomillashtirish orqali amalga oshirilishi aniqlandi: bo'lajak tarbiyachilarning avvalgi o'zlashtirgan bilimlarini hisobga olish; suhbat uchun vaqt ajratish, bo'lajak tarbiyachilarni hurmat bilan tinglash; bo'lajak tarbiyachilarni xato va tanqid qilishdan qo'rqish kabi hissiy to'siqlardan xalos bo'lishga yordam berish; rag'batlantirish; bo'lajak tarbiyachilarni ko'proq qiziqtiradigan mavzular bilan shug'ullanishlariga imkon yaratish; darsda qo'llaniladigan o'qitish metodlarining samaradorligini oshirish; bo'lajak tarbiyachilar faoliyatini faqat hurmat qilgan holda tanqid qilish; bo'lajak tarbiyachilarni yangi g'oyalarni ifoda etishga undash; pedagog tarafidan bo'lajak tarbiyachilarga munozarali savollar berish; bo'lajak tarbiyachilar bilan ijobiy munosabatda bo'lish; bo'lajak tarbiyachilar o'zlarini namoyon qilishdan qo'rqmaydigan psixologik jihatdan xavfsiz muhit yaratish; xulq-atvor va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bo'yicha individual farqlarni tushunish.

Dissertatsiyada keltirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, kreativlik qobiliyatidan nafaqat bir qancha qiziqarli g'oyalarni yaratish, balki o'z-o'zini takomillashtirish va shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanish mumkin. Mavjud muammolarni va ijodiy qobiliyatni rivojlangan darajasini o'zida mujassam etgan jarayonni kreativlik deb qarashimiz mumkin. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimi bo'lajak tarbiyachilarining shaxsiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bilan birga ularning o'quv faoliyatini kreativ olib borish ta'lim sifatini yanada oshirish bilan bir qatorda ijtimoiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

Bo'lajak tarbiyachilar kreativ faoliyatining mazmuni esa metodik bilimlarga asoslanadi. Mazkur bilimlar barcha o'quv dasturlari bilan qurollantirilib, amaliy ko'nikma va malakalar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Kreativlikni rivojlantirish ta'lim jarayonida muammoli ta'lim usullaridan foydalanish, o'quvchilarga mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Metodika fanlarini o'qitish jarayonida didaktik materiallarni tanlash va taqdim etishning ijodiy yondashuvga asoslangan bo'lishi, bo'lajak tarbiyachilarni o'z pedagogik faoliyatlarida innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalana olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Metodik ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, jumladan, loyiha asosida ta'lim berish, reflektiv yondashuv va muammoli vaziyatlar orqali o'qitish kreativ fikrlashni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bo'lajak tarbiyachilarning individual xususiyatlari va shaxsiy tajribalarini hisobga olish, ularning kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, fanlararo integratsiya orqali yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir. O'quv jarayonining izchilligi, yaxlitligi va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda kreativ ta'lim muhiti yaratish orqali bo'lajak tarbiyachilarni nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki ularni amaliyotda qo'llashga ham yo'naltirish mumkin.

Uslubiy- o'quv jarayonlarida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun turli metodlar yordamida ko'rgazmali qurollar, multimediali materiallar hamda turli ko'rinishdagi savol va topshiriqlardan foydalanish.

Protsessual- bo'lajak tarbiyachilarga bilim berish jarayonida avvalgi bilimlari bilan yangi o'zlashtirgan bilimlarini uzviyligini hamda berilayotgan bilimlarning mazmun mohiyatini izchilligini ta'minlash.

Shaxsiy- mavjud vaziyat natijalariga o'zining shaxsiy fikrlarini erkin bayon eta olishlari, tanqidiy fikrlarini bildira olishlari va taklif bera olish malakalari shakllanganligi.


Panoramik-bo'lajak tarbiyachilar mavjud vaziyatga nostandart tarzda tafakkurlarida turli tasvirlar hosil qila olish malakalarini rivojlanganligi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda kreativlik qobiliyatidan nafaqat yangi qiziqarli g'oyalarni yaratish, balki o'z-o'zini takomillashtirish va shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanish mumkin. Mavjud muammolarni va ijodiy qobiliyatni rivojlangan darajasini o'zida mujassam etgan jarayonni kreativlik deb qarashimiz mumkin. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimi bo'lajak tarbiyachilarining shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bilan birga ularning o'quv faoliyatini kreativ olib borish ta'lim sifatini yanada oshirish bilan bir qatorda ijtimoiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

Innovatsion yondashuv ham antik davrdan vujudga kelgan va bu Suqrot yondashuvi hisoblanadi.

Sokratik yondashuvi-Antik Gretsiyada, Suqrotning so'rovli metodikasi va dialektikasi, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

Innovatsion ta'lim rivojlanishining keying bosqichi o'rta asrlarga to'g'ri keladi va bu davrda 2-renesans ya'ni XI-XII asrlarda dastlabki Bolonya hamda Parij universitetlari tashkil etilgan.



1-rasm. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish aspektlari.

D.Gudnau o'zining ta'lim muassasalarida olib borgan tajribalaridan kelib chiqib, kreativlik imkoniyatlari sifatida bo'lajak tarbiyachilar ma'lumotlarni aktiv qo'llashi asosida predmetlarni noodatiy tarzda foydalanishlarini ta'kidlaydi. Olim yana o'z izlanishlarida kreativ fikrlashning divergent ko'rsatkichini ham aniqlagan.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlantirishda: mavjud muammolar tushunchalari va tahlillari, ularni yechish usullari, jumboqlar va yechimlar, ularni qo'llanish usullari, dunyoni anglash, o'quv vositalaridan foydalanish, turli tuzilmalar va ularning aloqador jihatlari; asosiy tuzilmalar va ularning o'zaro aloqadorligi; uslubiy; tushunchalarni anglash, jumboqlar va yechimlarni anglash, muammolarga

yechim topish yo'llarini o'rgatish, tabiiy ko'nikmalarni hosil qilish, vaziyatni tanqidiy tahlil qila olish, oliy ta'lim o'quv dasturlarining tarkibiy qismini tashkil etishi lozim. Shuningdek, bularning barchasiga bo'lajak tarbiyachining kreativ rivojlanishdagi aspekti sifatida qarashimiz mumkin bo'ladi.

A.Jigalov va A.Barishevalar o'z ilmiy faoliyatlarida kreativlikni tizimli ravishdagi psixologik jarayon ta'limi sifatida e'tirof etadi. Kreativlikni aqliy salohiyat bo'lish bilan birga, insondagi estetik rivojlanish, motivatsiya, bilimlar kreativligi va kommunikativ parametrlarni ham mavjudligi sifatida qaraydi.


Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy-texnologik jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak tarbiyachilar kreativligini takomillashtirishning zamonaviy tashkiliy shakllari, innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish haqida yoritilgan.

So'ngi yillarda oliy ta'lim tizimi faoliyatini texnologiyalashtirishning nazariy asoslarini yaratish borasida yurtimiz olimlari tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bulardan, B.Abdullayeva, M.O.Ochilov, N.Saidahmedov, U.Nishonaliyev, S.Y.Mahmudov, O'.Q.Tolipov, K.Zaripov, H.Abdukarimov, U.Sattorov, I.Soliyev, N.Botirovalar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalar, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish afzalliklarini o'rganish, shuningdek, muayyan o'quv yoki mutaxassislik fanlarini ta'lim berishni yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish yuzasidan salmoqli ishlari amalga oshirilgan.

Biz ilmiy izlanishimiz davomida ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirishda bo'lajak tarbiyachi asosiy ob'ektga aylanadi. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy ta'lim berish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar bo'lajak tarbiyachilarni bilimli, kreativ, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion yondashuvlar pedagogik jarayon hamda pedagog va bo'lajak tarbiyachi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan innovatsion vositalar va interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va bo'lajak tarbiyachilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: bo'lajak tarbiyachilarning mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish, kreativ bo'lish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va izlanishga majbur etishi; bo'lajak tarbiyachilarni o'quv jarayonida ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi; bo'lajak tarbiyachilarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga kreativ yondoshgan holda kuchaytirishi; pedagog va bo'lajak tarbiyachining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi asosida tahlil qilindi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham pedagog, ham bo‘lajak tarbiyachining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.




2-rasm. Pedagogik texnologiyaning strukturaviy elementlari

Bo‘lajak tarbiyachilarni ta’limda kreativ rivojlantirishning markaziga olib chiqishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalaniladi. Hozirda biz tavsiya etadigan metod, ya’ni bo‘lajak tarbiyachining kreativligi bo‘yicha bilimni baholashga, mavjud imkoniyatdan foydalana olishlarini aniqlashga va kelajakka maqsadli reja tuza olishlariga sharoit yaratadi.

Hozirda biz tavsiya etadigan metodlar bo‘lajak tarbiyachining kreativligi bo‘yicha bilimni baholashga, mavjud imkoniyatdan foydalana olishlarini aniqlashga va kelajakka maqsadli reja tuza olishlariga sharoit yaratadi. Kreativlik borasida fikr yuritilganda biz Gilford taksonomiyasi asosida “Assiment”, “Hamkorlik”, “Muammoli vaziyat”, “Loyihalash”, “Keys-stadi”, “Refleksiya-aniqlash”, “Shajara daraxti” texnologiya hamda metodlarni qo‘llash natijasida kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda na’mina sifatida keltiramiz.

Bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy ehtiyoj sifatida qaralib, uchta qismdan(tashkiliy, mazmunli, natijali)ga ajratilgan bo‘lib, tashkiliy qism (kreativ kompetensiyalarni shakllantirish, amaliyotda tadbqiq etish, kreativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirish, kreativ ta’lim muhitini yaratish, didaktik ta’minot), mazmunli komponent(shakl, metod, vosita), natijali komponent (Motivatsion-rag‘batlantiruvchi,mazmunli faoliyat, emotsional))ni o‘z ichiga oladi.. Bo‘lajak tarbiyachilarni kreativligini rivojlantirish maqsadi blokida kreativlikni rivojlantirish tamoyillari, omillari va ta’limni jarayonini tashkillashtirish orqali kelajak avlodga ta’lim-tarbiya beradigan faoliyat maqsadi ochib berilgan.



3-rasm. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli

Tarbiyachi qachon o'zi kreativ bo'lsagina u ta'lim-tarbiya berayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativligini rivojlantira oladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi borliq olam haqida ilk tasavvurlarni berish bilan bir qatorda mustaqil fikrlovchi, zamon bilan qadam-baqadam rivojlana oladigan komil va kreativ shaxsni tarbiyalashdir. Mana shu oliy maqsadga xizmat qiluvchi jarayonlar mazkur modelda o'z tasdig'ini topgan.

Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlantirish jarayoni blokida esa kreativligini rivojlantirish bosqichlari, kreativ rivojlanganlik mezonlari, kreativ rivojlanganlik darajalari qisqacha jadval ko'rinishida keltirilgan. Har bir amaliy faoliyatning maqsadga eltuvchi jarayonlari mavjudki, mazkur jarayonlar natijaga eltish yo'lini yaqqol belgilab beradi. Hayotda har bir to'laqonli shakllangan tarbiyachining maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda albatta, ezgu maqsadi mavjud bo'ladi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Mazkur jarayonda har bir kreativlikka intilgan bo'lajak tarbiyachi o'zining kreativ qobiliyatlarini namoyish etadi. Shuningdek, natijadorlikka erishadi.

Tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish jarayonida bo'lajak tarbiyachilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga kreativ yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qitishga, fanga pedagogga va o'zi tanlangan kasbiga nisbatan kreativligini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki ta'lim berishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar bo'lajak tarbiyachilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, kreativ, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, kreativ rivojlangan mutaxassis bo'lishlariga yordam beradi.

